

CHET TILI O'RGANUVCHILARNING LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN SAMARALI YONDASHUVLAR.**Muslima Raximova Dilshodjon qizi***Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti talabasi,**+998912863521 muslimaraximova53@gmail.com**Ilmiy raxbar: Sh.R.Nematjonov**Namangan davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada chet tilidagi so'zlarni qanday qilib oson va samarali o'rgatish va o'rganish yondashuvlari haqida muhokama qilinadi. Shuningdek, turli olimlarning so'zni uzoq muddatga xotiramizda saqlanib qolishi uchun qo'llagan tajribalari haqida so'z yuritilib, muammolarga namunaviy yechimlar beriladi.*

Kalit so'zlar: *lug'at, matn, tavsifiy tushuncha, birikma, tarjima, til, usul, grammatika, mashq, sinonim, antonim, mazmun, mohiyat, jarayon, leksika, tushunish, bilim.*

Abstract: *This article discusses how to teach and learn foreign language words easily and effectively. Furthermore, the experiences of different scientists using the word to be remembered in our memory for a long time are discussed and accessible solutions are given to the problems.*

Key words: *vocabulary, text, descriptive concept, combination, translation, language, method, grammar, exercise, synonym, antonym, content, essence, process, lexicology, understanding, knowledge.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается, как легко и эффективно учить и изучать слова иностранного языка. Также обсуждается опыт различных ученых, использующих слово, чтобы оно надолго сохранилось в нашей памяти, и даются примерные решения проблем.*

Ключевые слова: *лексика, текст, описательное понятие, сочетание, перевод, язык, метод, грамматика, упражнение, синоним, антоним, содержание, сущность, процесс, лексика, понимание, знание.*

KIRISH

Jamiyatimiz rivojlanayotgan ayni davrda, kundan kunga chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda. Ayniqsa yoshlar o'rtasida o'z sohasidan farqli o'laroq yana qo'shimcha til bilishga bo'lgan qiziqish kuchli, chunki yangi tillarni o'zlashtirish orqali yosh avlod o'zi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib boradi. Xususan, xalqaro universitetlar talabasi bo'lish, grantlar yutib olish yoki o'zi qiziqqan sohasidagi bilimlarni chuqur egallash hamda chet el malakasidan ham xabardor bo'lish uchun til bilish muhim ahamiyatga ega. Chet tilini o'rganish esa biroz mashaqqat talab qilishi tabiiy. Tilning grammatik, sintaktik jihatlari bilan birgalikda uning leksikografik (lug'atlar tuzish, amaliy lug'atchilik) tomonlarini ham puxta o'zlashtirish zarur. Negaki, tilning asosiy zamirini ushbu tildagi sinonim hamda

antonim soʻzlar jamlanmasi tashkil etadi. Shuningdek, chet tilida koʻp soʻzlarni bilish ushbu tildagi matnlar mazmunini toʻliq tushunish, fikrni turli sinonimlar bilan erkin ifodalay olish hamda ifoda taʼsirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Lekin koʻplab oʻquvchilar lugʻat boyligini oshirish jarayonida baʼzi qiyinchiliklarga duch keladi. Misol uchun, soʻzlarning xotiradan tez unutilib ketishi, nutq jarayonida ishlata olmaslik, yoki qoʻllamoqchi boʻlgan soʻzimizni gap mazmuniga mos kelmasligi kabi. Quyida ushbu muammolarni bartaraf etish uchun hozirgacha qoʻllanib kelinayotgan baʼzi samarali yondashuvlarni koʻrib chiqamiz.

MUHOKAMA

Avvalo, nutqimizdagi soʻzlarni ikki turga boʻlib olamiz. Bular: faol va kam qoʻllanadigan soʻzlardir. Faol soʻzlar kundalik hayotimizda nutq va yozish jarayonida eng koʻp ishlatadigan soʻzlarimiz boʻlsa, kam qoʻllanadigan soʻzlar bizning passiv nutqimizda boʻlib, maʼnosini maʼlum darajada tushunmaydigan va nutqimizda deyarli foydalanilmagan soʻzlarimiz hisoblanadi. Tadqiqotlarga koʻra, inson aqlida shunday jarayon kechadiki, unda yana yangi soʻz oʻrganib uni ham passiv nutq qismiga oʻtkazmasdan turib, avval oʻrganilgan soʻzlarni faol nutq jarayoniga oʻtkazib keyin yangi bilimlarni oʻzlashtirish maqsadga muvofiq boʻladi. Buning uchun esa, oʻrganilgan yangi soʻzlar ishtirok etgan maqola, badiiy adabiyot naʼmunalarini oʻqish samarali yondashuvdir. Lekin faqat oʻqish bilangina cheklanmasdan, matndagi soʻzga duch kelgan paytda uning maʼno- mazmuniga chuqur tushunish va eʼtibor berish zarur, shuningdek oʻqib- oʻrganilgandan soʻng ushbu soʻzlarni ogʻzaki nutqda qoʻllab kimgadir hikoya tarzida aytib berish soʻzni xotirada yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradi. Yana bir usullardan biri esa, hozirgacha koʻplab foydalanilgan “qayd qogʻozchalar” usulidir. Oʻquvchi yangi oʻrganayotgan soʻzlarini kvadrat shaklidagi kichik varoqchalarga yozib, qayd varoqchalarni oʻzi bilan birga olib yuradi. Boʻsh vaqt boʻlganda soʻzlarni takrorlab, ushbu soʻz qatnashgan gaplar tuzadi hamda uni anglatgan maʼnosini tasavvurida shakllantirishga harakat qiladi. Soʻz toʻliq oʻzlashtirilgandan soʻng esa, qayd varoqchadagi soʻz yangisiga almashtiriladi. Ammo, ushbu usulda birdaniga koʻp soʻzlarni oʻrganishni boshlash talab etilmaydi. Boshlanishiga 10 tagacha boʻlgan soʻzlardan boshlab oʻrganiladi.

Keyingi yondashuv chet tili leksikasini oʻrgatishda toʻliq oʻxshash tushunchalarni ona tili soʻzlari bilan, qisman oʻxshashliklarini soʻz birikmasi orqali va butunlay farq qiladigan soʻzlarni esa oʻsha tildagi soʻz bilan yoki tavsifiy tushuntirish yordamida taqdim etiladi. Masalan, ingliz tili misolida koʻrib chiqadigan boʻlsak, “qalam” soʻzining aynan muqobilini ingliz tilida ham topishimiz mumkin. Bu “pencil” va ushbu soʻz toʻliq oʻxshashlikka misol. “Qoʻl” soʻzini esa “arm” yoki “hand” kabi soʻzlar bilan ifodalaymiz va bu qisman oʻxshashlikka misol boʻla oladi. Ammo oʻzbek tilidagi “shanbalik” soʻzini ingliz tilida aynan muqobilini topa olmaymiz shu sababli, ushbu soʻz butunlay farq qiluvchi soʻzlar sirasiga kiradi. Shunga qaramasdan, biz bu soʻzni ingliz tilidagi boshqa bir tavsifiy soʻz birikmalari bilan ifodalashimiz mumkin. Oʻquvchilar ham oʻzga tildagi soʻzlarni oʻrganish jarayonida ushbu soʻzning oʻz tilidagi muqobili aynan qaysi soʻzga toʻgʻri kelishini ham oʻrganib borishi kerak. Chunki hozirgi

“qo‘l” so‘zida ko‘rganimizdek, o‘rganilayotgan so‘zning yana boshqa bir muqobili ham bo‘lishi mumkin, lekin ular ham o‘z ichida ma‘lum jihatlariga ko‘ra farq qiladi. Bu jarayonga esa tilni chuqur o‘zlashtirilgani sari tushunib borilaveradi.

Aqlimizda so‘zlarni uzoq muddatga esimizda saqlashga yordam beradigan yana bir samarali yondashuv bu, “tinglash, yozish va eslab qolish” usulidir. Buni asosan o‘qituvchilar kichik yoshdagi maktabgacha ta‘lim muassasa tarbiylanuvchilariga hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nisbatan qo‘llaydi. Ushbu jarayonda chet tilidagi ma‘lum musiqa qo‘yilib, o‘quvchilar musiqani matni bilan birga kuylaydi, keyin qo‘shiq davomida o‘zlari uchun notanish bo‘lgan so‘zlar jadvalini tuzib chiqadilar hamda o‘zbek tilidagi muqobilini topib kuylash bilan birga yodida saqlab boradilar. Ushbu jarayonning yana bir foydasi bu nafaqat yangi so‘zlarni o‘rganishga, shu bilan birga chet tilidagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga ham yordam beradi. Shuningdek, so‘z o‘zlashtirishda uning ma‘nosini anglab yetish dastlabki qadam vazifasini bajaradi xolos, asosiy jarayon esa uni nutq jarayonida ishlatishga qaratilgan tadbir hisoblanadi. Shuning uchun ham, til kurslarida o‘qituvchi o‘quvchiga so‘zlarni yodida yaxshi saqlab qolishi uchun ushbu so‘z ishtirok etgan bir qancha gaplar tuzish yoki so‘z birikmalarini hosil qilish kabi amaliy topshiriqlarni beradi. Masalan “book” so‘zi o‘zlashtirilgan yangi so‘z bo‘lsa o‘quvchi “my book”, “reading books” kabi so‘z birikmalarini tuzishi mumkin. So‘z o‘rganilgandan so‘ng esa o‘quvchi so‘zni o‘qituvchi yordamisiz nutqda mustaqil qo‘llay oladi. So‘zni esda saqlash muddati (ruhshunoslikda “qo‘llanishning latent davri”) takrorlash orqali erishiladigan hodisa sanaladi. Agar o‘rganuvchi istalgan so‘zini nutqining istalgan paytida ishlata olsa, demak latent davri ta‘minlangan bo‘ladi.

NATIJA

Ingliz olimlaridan biri Oliver Keys (“Keith speaking academy” asoschisi) so‘zni o‘zlashtirish jarayonini ajoyib bir usulini ommaga taqdim etgan, bu “Discover, Practice, Review circle” deb nomlanadi. Yani Keysning aytishi bo‘yicha ushbu jarayonlar bir tizimda emas, balki, ketma-ketlikda xuddi aylana shaklidek olib boriladi va chiroyli natijaga olib keladi. Bu usulda o‘quvchi shunchaki yodida yangi so‘zni saqlab qolish uchungina emas, balki o‘zi uchun yangi topilma kashf qilgandek o‘rganishi kerak bo‘ladi. Uning fikricha, so‘zlarni o‘rganish bu xarid qilish jarayoniga o‘xshaydi, ya‘ni o‘quvchi ko‘plab so‘zlarni sotib oladi xuddi tovarlarni xarid qilgandek va ular bizning qo‘limizda bo‘ladi aqlimizda emas. Ammo xarid qilingan narsalarni iste‘mol qilsak uning foydalari bizning ta‘namizga singib ketadi, so‘zlar ham xuddi shunday deya ikkinchi bosqichni aytadi. Yani biz so‘zlarni qo‘llashni boshlasak ular qo‘limizdan aqlimizga ko‘chadi bu qadamda so‘zni qanday talaffuz qilinishi, uning grammatik jihatdan qaysi so‘z turkumiga mos ekanligi va hatto matn ichida anglatgan ma‘nosi ham o‘rganiladi. Oxiri qadam “Review”da esa, so‘zni to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha o‘qituvchidan maslahatlar olinadi va xatolar to‘g‘irlanadi. Shunday qilib, ushbu jarayon har bir yangi so‘zni o‘rganish davomida takrorlanib boraveradi. Bu lug‘at boyligini oshirishning samarali yondashuvi hisoblanib hozirga qadar ko‘plab chet tili o‘rganuvchilari tomonidan qo‘llanib kelinmoqda va quvonarli natijalarga ega yondashuvlardan biri.

XULOSA

Ayni damda tilshunoslarimizdan biri Abdulla Umixanovning bir gapini unutmasligimiz kerak: “Eng yaxshi lug‘at bu – bir tilli lug‘at.” Darhaqiqat, agar chet tiliga ham aqliy jihatdan, ham ruhiy jihatdan ham chuqur yondashib o‘rganmoqchi bo‘lsak, buning uchun albatta shu tilda hatto o‘ylashni ham o‘rganishimiz zarur. Bu borada bir tilli yani “ingliz-ingliz” lug‘atlari yordam beradi. Bunday turdagi lug‘atlarda so‘zning ma‘nosi aynan shu tilda izohlangan bo‘ladi va bunday lug‘atlardan foydalanish so‘zning asl ma‘nosini chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Lekin tilni endi o‘rganishni boshlagan o‘quvchilar uchun bu lug‘atlar biroz qiyinchilik tug‘dirishu tabiiy. Chunki, ularda o‘zga tildagi so‘zlarni bilish darajasi hali yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Lekin vaqt o‘tgan sari, ushbu turdagi lug‘atlardan foydalanish yaxshi natijalaraga olib keladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan barcha yondashuvlarni o‘z yo‘nalishida to‘g‘ri qo‘llay bilish samarali natijalarga hamda chet tilini o‘rganishning rivojlanishiga olib keladi. Qolaversa, hozirgi davrimizda chet tilini o‘rganish ko‘plab imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, “Bugun jahon hamjamiyati o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir.”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Djalolov. “Chet tili o‘qitish metodikasi”. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent - 2012.
2. N.Sadikov. “Lug‘at boyligini qanday oshirish mumkin? “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2017
3. K.Shokarimova. “Pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning ta’lim-tarbiya berishdagi ahamiyati”. Science and education, 1. Toshkent - 2020
4. U.Bekmurodova. “Ingliz tilini o‘qitishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish.” Toshkent - 2012